

## PITIRIM SOROKINNING IJTIMOYIY STRATIFIKATSIYA NAZARIYASI

*Abdusamatova Odinaxon Abdusalom qizi*

*Farg'ona davlat universiteti Tarix fakulteti sotsiologiya yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Stratifikatsiya sotsiologiyaning asosiy tushunchalaridan biri sifatida jamiyatning ijtimoiy tarkibi, sotsial guruhlar va ularning tabaqalanish belgilari tizimini o'zida aks ettiradi. Mazkur maqolada ijtimoiy tengsizlik tushunchasi tasnifi bayon etilgan. Amerikalik rus sotsiologi P.Sorokinning sotsial stratifikatsiya nazariyasida olimning falsafiy va umumsotsiologik qarashlari pirovardida stratifikatsion kriteriyalar hamda stratalar shakllari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Ijtimoiy qatlamlarning bir- biridan farqlari xususida fikrlar qayd etilgan.

**Kalit so'zlar:** stratifikatsiya, ierarxiya, kriteriya, differensiatsiya, strata, yuqori, quyi va o'rta qatlamlar, quldorlik, kasta, tabaqalar, sinflar.

Biz sotsiologiyada ijtimoiy tengsizlikni tushuntirish uchun ijtimoiy stratifikatsiya atamasidan foydalanamiz. Ushbu tushuncha ijtimoiy qatlarni tartibga solishni va muayyan bir mezonga ko'ra tabaqalash, tasniflashni anglatadi. Jamiyat tarkibida sinflar, ijtimoiy guruhlarning bo'lishi, turli xil tabaqalar tuzish, millat va toifalarga ajratish hamda shu orqali boshqarish tajribasi juda uzoq tarixga ega ekanligini ham yaxshi bilamiz. U kishilar orasidagi ma'lum ijtimoiy tafovutlar ierarxik ko'rinishini ifodalaydi.

Stratifikatsiya nazariyasida doimo tenglik-tengsizlik muhokama etiladi. Tenglik tushunchasini quyidagicha tasnif etish mumkin:

1. Shaxslar tengligi;
2. Imkoniyatlar tengligi;
3. Yashash uchun sharoitlar tengligi;
4. Natijalar tengligi.

Shu kabi tengsizlik ham tasnif etilishi mumkin.

Sotsial stratifikatsiya – sotsiologiyaning markaziy mavzusidir. Chunki u jamiyatning boylarga va qatlamlanishini va ular o'rtasidagi ijtimoiy tengsizlik tafovutlarini keng izohlaydi.

Stratifikatsiya nazariyasini rivojlantirishga P. Sorokin, Ya.Shilz, B.Barber, U. Mur kabi olimlar o'zlarining katta hissalarini qo'shdilar.

Pitirim Aleksandrovich Sorokin (1889-1968) ning ilmiy merosi bu borada jahon sotsiologik tafakkuri rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Uning falsafiy va umumsotsiologik qarashlari sotsial- iqtisodiy va dolzarb muammolarni ilmiy idrok etish va tahlil qilish uchun ko'p materiallar yig'ishiga sabab bo'lgan. Sorokin o'z sotsiologiyasining umumiy qoidalariga muvofiq ravishda konkret sotsial masalaga doir tadqiqotlar

o'tkazdi va sotsial hodisalarning murakkabligini ko'rsatdi. Sotsial stratifikatsiya va sotsial mobillik konsepsiyasining yaratilishi ana shunday tadqiqotlarning samarasi bo'lgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Asli rus bo'lgan AQSH sotsiologi P. Sorokin odamlarning u yoki bu strataga mansubligi mezonlarini yanada aniqroq asoslab berdi. U bunga doir 3ta asosiy mezonni alohida ajratib ko'rsatdi:

- a) Iqtisodiy
- b) Professional
- c) Siyosiy

Sotsiologning fikricha, "sotsial stratifikatsiya – bu martabalar ierarxiyasida muayyan odamlar yig'indisining differentsiatsiyasi (tabaqlashuvi) dir. U o'z ifodasini yuqori va quyi qatlamlarning mavjudligidan topadi. Uning asosi va mohiyati – u yoki bu hamjamiyat a'zolari o'rtasida nafaqat huquq va majburiyatlarning, balki sotsial qadriyatlar, imtiyozlar, hokimiyat va obro' kabilarning notekis taqsimlanganligi, ularning mavjudligi va mavjud emasligidir. Stratifikatsiyaning asosiy shakllari – mezonlari o'zaro chatishib ketgan. Yuqori qatlamga mansub odamlar bir vaqtning o'zida yuqori siyosiy va professional qatlamlarga tegishli bo'ladi. Mulksizlar ko'pincha o'z fuqarolik huquqlarini amalga oshira olmaydi va professional ierarxiyaning quyi qatlamiga mansub bo'ladi. Ba'zan eng boy odamlar ham siyosiy piramidaning tepasida bo'la olmaydi. Buni qarangki, quyi qatlam vakillari ayrim hollarda piramidaning yuqori pog'onasida bo'lishi mumkin. Demak, sotsiologik stratifikatsiyaning uch shakli o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik hali mukammallikdan uzoqda ekan. Chunki turli shakllardagi qatlamlar to'liq ravishda bir – biriga mos kelmaydi. Yoki ular bir- biri bilan qandaydir darajada va qisman bir xillik kasb etadi. Bu dalillar sotsial stratifikatsiyaning mezonlarini birgalikda tahlil etishga imkon bermasligi turgan gap. Shuning uchun ham ularning har birini alohida o'rganish va tasniflashga to'g'ri keladi. Har bir jamiyatning sotsial stratifikatsiyasida chalkashliklar uchraydi. Shu sababli ularni o'rganishda asosiy xususiyatlariga e'tibor qaratish kerak"

Pitirim Sorokin ham o'zining 1920-yilda chop etilgan "Sotsiologiya tizimi" asarida hamda keyinchalik AQSHda olib borgan faoliyati davomida stratifikatsiya nazariyasining asosini tashkil etuvchi qator tushunchalarni tizimga solib, ularning mohiyatini yanada kengroq ishlab chiqdi. Ularga misol qilib, "bir asosli stratifikatsiya", "ko'p asosli stratifikatsiya", "sotsial mobillik" kabilarni keltirish mumkin. Yana shuni ta'kidlash joizki, P.Sorokin "Sotsial stratifikatsiya nazariyasi" nomli asarida o'zining mazkur iboraga ma'lum insonlar birlashmasining ierarxik ranglarda sotsial sinflar, guruhlar va statuslar differentsiatsiyasi ekanligini izohlagan. Qolaversa, stratifikatsion mezonlar asosida ijtimoiy qatlamlar bir – biridan farq qilishini ta'kidlagan. Bular:

1. Ijtimoiy- iqtisodiy – mol-mulk, daromad, mehnatni tashkil qilishda tutgan o'rni, ishlab chiqarish tizimidagi o'rni, stratalarning statusi;

2. Ijtimoiy – professional – mehnatning xarakteri va tarkibi , mehnat sharoiti, professional malaka va umumiy ma‘lumotlilik darajasi, faoliyat sohasining obro‘si;

3. Ijtimoiy – siyosiy – status, hokimiyat, ta‘sir ko‘rsatish doirasi, avtoriteti.

Yuqorida keltirilgan farqlar asosida P. Sorokin sotsial stratallarni quyidagicha tasniflagan:

a) Elementar stratallar – bir kriteriy asosida

b) Kumulyativ stratallar – ikki va undan ortiq kriteriyalar asosida

c) Konglomerativ – elementar va kumulyativ stratallar asosida , ularning hajmi o‘ta katta bo‘ladi.

Misol uchun, 8 milliard...

P. Sorokin “sotsial stratifikatsiya nazariyasi” asarida tizimning tarixiy rivojlanishga ko‘ra ketma-ket paydo bo‘lgan 4ta tipni ajratib ko‘rsatgan. Ular stratifikatsion rivojlanish bosqichlari sanaladi:

1. Quldorlik tizimi

2. Kasta

3. Tabaqalar

4. Sinflar.

1. Quldorlik - kishilarni qaram qilishning iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy shaklidir. Tengsizlik darajasining ko‘rinishidir.

2. Kastalar (lat. Partugal. guruh, toifa, tabaqa) - odam tugilganidan boshlab a‘zo bo‘lib qoladigan ijtimoiy guruhlar (stratallar) dir.

3. Tabaqalar - taomillar yoki huquq, qonunlari bilan mustahkamlangan nasldan-naslga o‘tuvchi huquqlar va burchlarga ega bo‘lgan ijtimoiy guruhlar.

4. Sinflar - sinflar paydo bo‘lishi XVIII-XIX asr bilan bog‘liq AQSH - o‘rta sinflar jamiyati. AQSHda 4 ta asosiy sinflar bor:

- oliy;

- o‘rta;

- ishchi;

- quyi sinflar.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, stratifikatsiya – jamiyat tuzilmasi, alohida qatlamlari, ijtimoiy tabaqalanish belgilari tizimi va tengsizliklarni ifoda etuvchi sotsiologik tushunchadir. Rus sotsiologi Sorokin mazkur nazariyasi ham aynan jamiyat sotsial tarkibidagi o‘zaro differentsiatsiyaning talqinlarini tasnif qilishga qaratilgan. Uning “Inson. Sivilizatsiya. Jamiyat” nomli asarida alohida bobni shu mavzuga bag‘ishlanganligi ijtimoiy tizimda qatlamlarning ahamiyati nechog‘lik muhimligining isbotidir. Sorokin izohlagan mezonlar har bir jamiyat uchun turlicha va beqarordir. Xuddi shuning uchun ham ijtimoiy tengsizlik ko‘lami ham turfa xildir. Sotsiologga

stratalarni o'rganish omma tarkibidagi rang- baranglikni aniqlash imkonini beradi. Zero, qatlamlarning ijtimoiy statikasi va dinamikasi jarayonlarini ilmiy baholash konkret sotsial bilim berishi bilan ham ahamiyatlidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sotsiologiya: oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma/ M.Qirg'izboyev. Toshkent, «Navro'z» nashriyoti, 2017 y.
2. K.Kalanov, A. Sodiqov, M.Sharipov, B. Alimboyeva, X. Kurbanaliyeva. "Sotsiologiya". Toshkent, 2017.
3. R.Umarova, B. Sarkisov. Sotsiologiya. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2004.
4. "Sotsiologiya" fanidan ma'ruzalar matni. Xadjiyev Umrbek Shonazarovich URGANCH- 2015.
5. Sotsiologiya fanidan ma'ruzalar matni. Atajonova A., Qutlimuratov S. Toshkent. 2017.
6. Yo. Toirov, A. Lyagay, K. Ro'zimatzoda. "Sotsiologiya asoslari " o'quv qo'llanma. Farg'ona, 1998.
7. Сорокин П.А. Человек. Цивилизация. Общество. М-1992.
8. Основы социологии курс лекций. А.И. Антолов, В.Ч. Нечаев Л.В. Пиковский и др. Отв. Ред/ Г. Эфендиев М: об-во "Знание" России 1993.